Ilm-fan va amaliyot: Toshkent viloyati hokimi olimlar bilan uchrashdi

Joriy yil 3 mart kuni O’zR FA Yadro fizikasi institutida Toshkent viloyati hokimi Rustam Xolmatov Fanlar akademiyasi akademiklari, yetakchi olimlari, yosh tadqiqotchilari bilan uchrashdi.

Uchrashuvda bugungi kunda viloyatda faol ish olib borayotgan meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan agroklasterlar rahbarlari, tuman hokimlari ham qatnashdi.

– Qishloq xo’jaligi sohasi bugun olimlarning maslahati va yangi ishlanmalariga nihoyatda muhtoj. Viloyatda tashkil etilgan meva-sabzavotchilik klasterlari jahon bozori uchun raqobatbardosh, ekologik talablarga javob beradigan mahsulot yetishtirishi, shuningdek, tola sifati yuqori bo’lgan paxta navlarini yetishtirishi juda muhim – dedi viloyat hokimi Rustam Xolmatov.

Uchrashuvda Fanlar akademiyasi prezidenti, akademik Bexzod Yuldashev keyingi yillarda mamlakatimizda ilmiy jamoatchilik o’tkazilayotgan bu kabi uchrashuvlar fan-texnika sohasida erishilgan yutuqlarni amaliyotga tadbiq etishda muhim o’rin tutishini va bu borada olimlar hamisha hamkorlikka tayyor ekanligini ta’kidladi.

Tadbir davomida O’zR FA olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy ishlanmalar ko’rgazmasi tashkil etildi. Shuningdek, FA Yadro fizikasi instituti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida, radiopreparatlar, tibbiyotda qo’llaniladigan mahsulotlarga radioatsiyaviy ishlov berish markaziga ekskursiya uyushtirildi. Ekskursiya davomida FA Yadro fizikasi instituti direktori Ilxom Sodiqov Markaz faoliyati haqida gapirar ekan, ushbu Markaz respublikamizning sterillangan tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlariga bo’lgan ehtiyotini to’liq qamrab olishini ta’kidlab o’tdi.